

LUTFIY IJODINING RAVNAQ SHE‘RIYATIGA TA‘SIRI TO‘G‘RISIDA

Usmonova Mohidil

Qarshi DU, talaba.

Annotatsiya. Maqola Pahlavonquli Ravnaqning Lutfiy g‘azallariga naziralarini tahliliga bag‘ishlangan. Unda nazira g‘azallarining shakli va mazmuni, an‘ana va izdoshlik masalasi adabiy hamda ilmiy manbalar asosida tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: g‘azal, qofiya, radif, nazira, an‘ana, izdoshlik, adabiy ta‘sir.

O‘zbek mumtoz adabiyotining atoqli namoyandasi, Navoiy tomonidan o‘z davrining “malikul-kalomi” deya ulug‘langan Lutfiy ijodi hamisha so‘z san‘atkorlari tomonidan e’tirof etib kelingan. Mavlono Lutfiy hayotlik chog‘laridanoq o‘z davri adabiy muhitida ustoz sifatida katta mavqega ega edi. Mumtoz she‘riyatimizda har bir ijodkorda hazrat Navoiyga ergashish kuzatilgani singari mavlono Lutfiy ijodiga izdoshlik ham ko‘p uchraydi. G‘azallariga yuzlab tatabbu‘ va taxmislar yozilgan. Bu an‘ana, ayniqsa, Xorazm adabiy muhitida o‘ziga xos tarzda davom etdi. Xususan, iste’dodli shoir Pahlavonquli Ravnaq ijodida uchraydigan o‘ziga xos izdoshlik va badiiy mahorat fikrimizni dalillaydi.

Pahlavonquli Ravnaq Xorazm adabiy muhitining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri. Ravnaq, asosan, lirik janrlarda ijod qilgan. She‘rlari bir qancha bayozlar, majmualar tarkibiga kiritilgan.

Ravnaq Lutfiy ijodiga katta hurmat va ehtirom bilan qaradi va uning g‘azallariga naziralar, o‘xshatmalar yaratdi. Mavlono Lutfiy she‘riyati Ravnaq ijodida sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi.

Ravnaq Lutfiyning ishqiy, ma‘rifiy mavzularda yaratilgan “Xoh inon, xoh inonma”, “Bor”, “Sanga”, “Jigi-jigi” radifli g‘azallarining shakl va mazmuniga o‘xshash tarzda bir qancha she‘riy asarlar yaratdi. Quyida ularning ayrimlari xususida to‘xtalib, o‘xshash va farqli jihatlar borasida fikr yuritimiz.

Lutfiyning mashhur “Xoh inon, xoh inonma” radifli g‘azaliga bir qator ijodkorlar tomonidan o‘xshatmalar bitilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar saroyida xizmat qilgan Muhammad Bayramxon, o‘zbek adabiyotining yetuk namoyandasi Boborahim Mashrab lirikasida ham ayni shu radifli g‘azal mavjud. Bayramxon va Ravnaq ijodida ushbu g‘azalning qofiyasi, radifi, mavzusi va vazni saqlangan holda nazira bog‘langan bo‘lsa, Mashrab Lutfiy g‘azalining matla‘cini aynan olib, keyingi baytlarni yaratishda izdoshlik yo‘lidan boradi. E’tiborli jihati shundaki, Ravnaq g‘azalining matni va badiiyati salafining g‘azallariga yaqinligi bilan ajralib turadi:

Yondim sevarim xoh inon, xoh inonma,

Kuydi jigaram, xoh inon, xoh inonma –

deb boshlanuvchi ushbu g‘azalda Ravnaq yuqorida nomi tilga olingan har ikki ijodkordan ham ilhomlangan bo‘lishi mumkin (*Maqolada Ravnaq g‘azallaridan keltirilgan baytlar ziyouz.uz saytidan olindi – M.U*). Quyida ular o‘rtasidagi o‘xshashliklarga to‘xtalamiz. Lutfiy g‘azalining ikkinchi bayti quyidagicha:

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma. [Lutfiy. 5:22]

Mazmuni: Ey oy yuzli go‘zal, xoh ishon, xoh ishonma: sendan ayroliq kechasining so‘ngida – saharda tortgan ohim charxi falakka yetadi. Badiiyatan nihoyatda go‘zal mazkur baytning mazmuni Ravnaq g‘azalining o‘ninchi baytida (g‘azal o‘n bir baytdan iborat) quyidagicha namoyon bo‘ladi:

Barbod berur har kecha avroqi saharini,
Ohi saharim, xoh inon xoh inonma.

Bunda oshiqning yorni sog‘inib qilgan tonggi ohu nolasi sahar varaqlarini barbod qiladi, deb Lutfiy baytiga hamohang bayt bitadi shoir. Shuningdek, ikki misrada ham “sahar” so‘zining qo‘llanishi orqali takrirning bayt mazmunini jozibali qilganini ko‘ramiz.

Ushbu baytlarda Lutfiy ham, Ravnaq ham “ohi saharim” deya yorga murojaat qilar ekan, yorsiz o‘tgan har kecha ularga qanchalik azob berishini va bu azob sahangacha davom etishini ta’kidlaydi. Bu kabi o‘xshashlikni quyidagi baytda ham ko‘rishimiz mumkin:

Lutfiyda:

Haqqoki qilich kelsa, boshimga eshikingdin,
Yo‘qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.[Lutfiy. 5:22]

Ravnaqda:

Jondin guzarim bor, vale la’li labingdin,
Yo‘qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.

Yuqoridagi baytlarning mazmunidan ma’lum bo‘ladiki, oshiq muhabbatda barqaror, yorga bo‘lgan ishq ahdida sobit. Lutfiyda lirik qahramon hatto boshimga qilich kelsa ham ishqdan kechmayman desa, Ravnaqdagi oshiq jondan kechsa kechadiki, yordan voz kechmaydi. Aslida bular har ikki shoir g‘azalidagi shaklan ko‘rinib turgan o‘xshashliklar bo‘lsa-da, mazkur g‘azallarning mazmuni, mohiyati, lirik qahramonlarning kechinmalari tasviri bir-biriga nihoyatda uyg‘un.

Shu o‘rinda Ravnaq va Mashrab g‘azallarini ham muqoyasa qilish zarurati bor. Negaki, bu ikki ijodkor g‘azallarida ham o‘zaro adabiy ta’sir natijasi yaratilgan o‘xshash baytlar kuzatiladi. Jumladan, Ravnaq bir baytida yor ishqida o‘rtanib, uning oyoqlari ostida ezilganini (pomol bo‘lganini) aytadi:

Xoki sari ko‘ying aro bo‘ldum sanga pomol,
Ey toji sarim, xoh inon, xoh inonma.

Mashrab esa bu holatni quyidagicha ifodalaydi:

Nogoh sari ko‘ying aro bo‘ldum senga moyil,

Ey toji sarim, xoh inon, xoh inonma. [Mashrab. 4:16]

Diqqat qilinsa, har ikki baytda oshiqning ma‘shuqaga zorlanishi, uning rutbasini baland tutishi bir xil. Har ikki o‘rinda ham oshiq yorni “toji sarim” deya ulug‘laydi.

Eng hayratlanarli jihati shundaki, Ravnaq g‘azalidagi oltinchi va to‘qqizinchi baytlar Mashrab g‘azalidagi to‘rtinchi va beshinchi baytlar bilan aynan bir xil:

La‘ling g‘amidin g‘uncha kabi ko‘nglum erur qon,

Gulbargi tarim, xoh inon, xoh inonma.

(Mashrabda 4-bayt; Ravnaqda 6-bayt)

Zahri g‘ami hajring meni o‘ldurgali yetti,

Ey lab shakarim, xoh inon, xoh inonma.

(Mashrabda 5-bayt; Ravnaqda 9-bayt).

Bizningcha, buni o‘zga shoir baytini noo‘rin o‘zlashtirish emas, balki salafining ijodiga bo‘lgan muhabbati va nazira g‘azal mazmuniga ushbu baytlar mohiyatining uyg‘unligi sababli istifoda etish deb tushunish o‘rinli bo‘ladi. Mashrab va Ravnaq g‘azallaridagi maqta’ baytlar ham shakl va mazmun jihatdan bir-biriga juda yaqin:

Mashrab:

Mashrab kabi ko‘yingda bo‘lub barqi tajalli,

Qolmay asarim, xoh inon, xoh inonma. [Mashrab. 4:16]

Ravnaq:

Ravnaq kabi ishqingda kuyub barqi balodin,

Yo‘qtur asarim, xoh inon, xoh inonma.

Yuqoridagi mulohazalardan shunday fikrga kelish mumkinki, Ravnaqning “Xoh inon, xoh inonma” radifli g‘azali yozilishida Lutfiy bilan bir qatorda Mashrabning ham anchayin sezilarli ta’siri bo‘lgan.

Ravnaqning boshqa g‘azallarida ham Lutfiy nazmiy asarlariga xuddi shunday mazmuniy yaqinlikni kuzatamiz. Xususan, Lutfiyning mashhur “Jigi-jigi” radifli g‘azali ta’sirida Ravnaq ham ayni shu radifli g‘azal yaratadi.

Lutfiyda:

Furqating o‘lturur meni tutma ravo, jigi-jigi,

Ko‘nglum olib yoshunmag‘il bahri xudo, jigi-jigi.

Chun ko‘zi qosh-u qad bila bizni ko‘ngulsiz aylading,

Qilma havola jonima o‘zga ano, jigi-jigi. [Lutfiy. 5:325]

Ravnaqda:

Ey yuzi gul **nigorimiz**, qilma jafo, jigi-jigi,
Sevgili **gul uzorimiz**, qilma jafo, jigi-jigi.

Parda jamoldin **olib**, fitna sipohi qo‘zg‘olib,
Chiqma jahonga o‘t **solib**, qori qaro, jigi-jigi.

Bu ikki g‘azalni taqqoslar ekanimiz, Ravnaq g‘azal shakli va poetikasiga ijodiy yondashganini ko‘rishimiz mumkin. ya’ni Lutfiy g‘azalda an’anaviy qofiya turidan foydalangan. Ravnaq esa ichki qofiya vositasida musajja’ g‘azal yaratadi va mazmuni mukammallashtirib, g‘azal ohangdorligi hamda musiqiyligini ta’minlashga erishadi.

Shu o‘rinda radif sifatida olingan “Jigi-jigi” so‘zining shakli va mazmuni xususida ham mulohaza bildirib o‘tish lozim deb o‘ylaymiz. Negaki, adabiy va ilmiy manbalarda ushbu so‘zning turli shakllarda qo‘llanishi kuzatiladi. “O‘zbek adabiyoti tarixi” besh tomligining uchinchi tomida keltirilgan Ravnaq to‘g‘risidagi maqolada yuqoridagi g‘azal tahlilida radif so‘z “Jigi-jigi” [O‘zbek adabiyoti tarixi. 6:280] tarzida keltirilgan bo‘lsa, V.Abdullayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida “Chakki-chakki” [Abdullayev V. 2:184] shaklida uchraydi. Ayyomiyning “O‘t chaqnagan satrlar” kitobida esa Andalibning “Yusuf va Zulayxo” dostonidan keltirilgan parchada boshqa uchinchi shaklga duch kelamiz:

Tutashdi jonimiz, yondi Zulayhojon jig‘ir-jig‘ir,
Quridi tanda qonimiz Zulayhojon jig‘ir-jig‘ir.
Yusuf qoldi jafosig‘a ishq uyining balosig‘a,
Rahm etkil gadosig‘a Zulayhojon jig‘ir-jig‘ir. [Ayyomiy. 3:45]

Bu o‘rinda she’r mazmunidan “jig‘ir-jig‘ir”ning aslida “jigi-jigi” ekanini anglash qiyin emas. Bizningcha, bunday har xilliklar orasida mazkur so‘zning “jigi-jigi” varianti to‘g‘ri. Fikrimizning dalili sifatida shevashunos F.Abdullayevning “O‘zbek tilining Xorazm shevalari” kitobiga yuzlanamiz: “**ЖЫГЬ-ЖЫГЬ** *Ург, Хув.* 1. хеч, асло; йоқ-йоқ; жыгь-жыгь то:бэ этъм, худа:йъм, гүнайъмнэн эт, дэпть нэпыс (*Ург, 1*); 2. хай-хай: жыгь-жыгь, бу сөзыннэн қайт (*Ург, 1*)” [Abdullayev F. 1:43]. Anglashilmoqdaki, oshiqning ma’shuqaga xitoban aytayotgan “unday qilma”, “bu so‘zgingdan qayt”, “gunohimdan o‘t”, “menga jabr qilma” mazmunidagi kechinmalarini ifodalaydigan so‘z “jigi-jigi”dir.

Lutfiy lirikasida yetakchi mavzulardan biri bu – ishq. Shu sababli shoir g‘azallarida yor tasviri, uning vasfi alohida o‘rin egallaydi. Lutfiy bir g‘azalida ma’shuqa ko‘zini jon oluvchi balo deya ta’kidlaydi:

Ko‘zung qarosi fitna, vale oqi balodur,
Jonlar oladur, vah, ne balo ko‘zi qarodur. [Lutfiy. 5:52]

Ravnaq lirikasida ham shunga o‘xshash bayt mavjud. Lutfiydan farqli ravishda Ravnaq jon oluvchi deya yorning noz-u ishvalarini aytadi:

Ne ishva-u, ne noz-u karashma, ne adodur,
Bilmon bu ne jon ofati, ne hur liqodur.

Mazmunan ko‘z va noz-u ishva so‘zlari bir-biriga yaqin tushunchalar. Bu esa ikki shoir badiiy niyatining tasviridagi mushtarakligini ko‘rsatadi. Mumtoz she‘riyatimizda muayyan ijodkor lirikasida bir xil radifda bir necha she‘rlari yaratilishi ko‘plab uchraydi. Xususan, Lutfiy g‘azalyotida “Bor” radifli bir nechta g‘azal mavjud. Qiziqarlisi, bunday radifli g‘azallar Ravnaq lirikasida ham anchagina. Ravnaqning bunday g‘azallar yozishiga boshqa ijodkorlar sirasida Lutfiy ijodi ta’sir etgani shubhasiz.

Pahlavonquli Ravnaq haqida ma’lumot berilgan manbalarda shoirning Navoiy (14 ta g‘azaliga), Fuzuliy (3 ta g‘azaliga), Mashrab va Xurramiy g‘azallariga muxammaslar bog‘lagani ta’kidlanadi. Biroq ilmiy adabiyotlarda Ravnaqning Lutfiy g‘azallariga naziralar yozgani to‘g‘risida hech bir qayd uchramaydi. Yuqori tahlilga tortilgan g‘azallardan xulosa qilish mumkinki, Ravnaq she‘riyatiga Lutfiy ijodining ta’siri ancha sezilarli bo‘lgan. Ravnaq nazmiy merosini to‘laligicha tadqiq etish bu kabi mushtaraklik, adabiy izdoshlik yanada kengroq bo‘lishi mumkin degan ilmiy to‘xtamga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev F. O‘zbek tilining Xorazm shevalari. – Toshkent: Fan, 1961. 348 b.
2. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. 384 b.
3. Ayyomiy (Yusupov Y.). O‘t chaqnagan satrlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1963. 184 b.
4. Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1990. 416 b.
5. Lutfiy. Sensan sevarim. Devon. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1987. 464 b.
6. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1978. 380 b.
7. <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/ravnaq/>